

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Metyakubov Azamat Jumonzarovich

PhD, dotsent

Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish kafedrası

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

IMPROVING INTEGRATED APPROACHES TO ASSESSING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF BUILDING MATERIALS INDUSTRY ENTERPRISES

Metyakubov Azamat Djumanazarovich

PhD, Associate Professor

Department of Economics and Real Estate Management

Tashkent Architecture and Civil Engineering University

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholashning zamonaviy yondashuvlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi ishlab chiqarish, moliyaviy, investitsion va innovatsion omillar o'rganildi. Korxonalar faoliyatini baholashda alohida ko'rsatkichlardan foydalanishning cheklangan jihatlari tahlil qilinib, integrallashgan baholash yondashuvining afzalliklari asoslab berildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash korxonalarning ichki imkoniyatlarini aniqlash, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirish imkonini berishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, iqtisodiy samaradorlik, integral baholash, resurslardan foydalanish, rentabellik, investitsiya samaradorligi

Abstract. This article examines modern approaches to assessing the economic efficiency of building materials industry enterprises. The study analyzes production, financial, investment, and innovation factors affecting economic efficiency. The limitations of using individual

indicators in enterprise performance assessment are identified, and the advantages of an integrated assessment approach are substantiated. The findings indicate that a comprehensive evaluation of economic efficiency enables enterprises to identify internal reserves, improve management decision-making, and develop long-term growth strategies.

Keywords: building materials industry, economic efficiency, integrated assessment, resource utilization, profitability, investment efficiency

KIRISH

Mamlakatimizda qurilish materiallari sanoati iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanib, sanoat ishlab chiqarishi hajmini oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda tarmoqni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda mahalliyashtirish darajasini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasida sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, energiya va

resurslardan samarali foydalanish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan [2]. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy samaradorlik korxona faoliyatining yakuniy natijalarini ifodalovchi muhim iqtisodiy kategoriya sifatida e'tirof etilgan. Jumladan, Q.X. Abdurahmonov iqtisodiy samaradorlikni resurslardan foydalanish natijadorligini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida baholagan bo'lsa [3], M.Q. Pardayev va B.A. Abdulkarimovlar samaradorlikni erishilgan natijalar va sarflangan xarajatlar nisbatida namoyon bo'ladigan iqtisodiy kategoriya sifatida izohlaydilar [4]. Shuningdek, Sh.Sh. Shodmonov va U.V. G'afurovlarning ilmiy qarashlarida iqtisodiy samaradorlik resurslardan eng maqbul foydalanish orqali maksimal natijaga erishish bilan bog'liq holda talqin etilgan [5].

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda ham iqtisodiy samaradorlik masalalari keng tadqiq qilingan. P.Samuelson va V.Nordhaus iqtisodiy samaradorlikni jamiyat resurslaridan eng maqbul foydalanish orqali ehtiyojlarni qondirish darajasi bilan bog'laydilar [6]. Biroq mavjud ilmiy ishlarda qurilish materiallari sanoati korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Shu munosabat bilan qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholashning integrallashtirish yondashuvlarini takomillashtirish va ularning amaliy natijalarini o'rganish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy samaradorlik iqtisodiyot fanining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, uning mazmun-mohiyati turli davrlarda turlicha talqin etilgan. Klassik iqtisodiy maktab vakillari iqtisodiy samaradorlikni ishlab chiqarish natijalari va ularga sarflangan resurslar o'rtasidagi nisbat orqali izohlashgan. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda esa mazkur tushuncha korxonaning raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyati, investitsion faolligi va boshqaruv sifati bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilmoqda [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy samaradorlik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Q.X. Abdurahmonovning ta'kidlashicha, iqtisodiy samaradorlik mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan foydalanish natijadorligini ifodalovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi [3]. M.Q. Pardayev va B.A. Abdulkarimovlar samaradorlikni korxona faoliyatida erishilgan natija hamda ushbu natijaga erishish uchun sarflangan resurslar o'rtasidagi mutanosiblik sifatida tavsiflaydilar [4].

Sh.Sh. Shodmonov va U.V. G'afurovlarning ilmiy qarashlariga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik resurslardan minimal xarajatlar evaziga maksimal natija olish imkoniyatlarini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi [5]. Bunday yondashuv korxonalarda xarajatlarni optimallashtirish va foydalilik darajasini oshirish masalalarini iqtisodiy samaradorlik bilan bevosita bog'lash imkonini beradi.

So'nggi yillarda iqtisodiy samaradorlikni baholash masalalari inson kapitali va ijtimoiy omillar bilan ham bog'liq holda o'rganilmoqda. Denikin va Denikina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inson kapitalining rivojlanishi hamda mehnat sharoitlarining yaxshilanishi korxonalarning

iqtisodiy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan [7]. Udalov esa korxonalarda inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikning uzoq muddatli o'sish omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [8].

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari alohida qayd etilgan. Mazkur tarmoq energiya sig'imining yuqoriligi, katta hajmdagi kapital qo'yilmalar talab qilishi hamda xomashyo bazasiga kuchli bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli korxonalar samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish, investitsiya va innovatsion faoliyat natijalarini ham hisobga olish zarurati yuzaga keladi [9].

Xorijiy tadqiqotchilar Samuelson va Nordhaus iqtisodiy samaradorlikni jamiyat ehtiyojlarini mavjud resurslardan eng maqbul foydalanish orqali qondirish darajasi bilan bog'laydilar [6]. Savitskaya esa samaradorlikni natija va resurslar o'rtasidagi nisbat orqali ifodalovchi murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida baholaydi [10].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy samaradorlikka oid mavjud ilmiy qarashlarning aksariyatida alohida ko'rsatkichlardan foydalanish ustunlik qiladi. Biroq qurilish materiallari sanoati korxonalarining murakkab ishlab chiqarish tuzilmasi, investitsion faolligi va innovatsion rivojlanish xususiyatlari iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholashni talab etadi. Shu sababli korxonalar faoliyatini baholashda ishlab chiqarish, moliyaviy, investitsion va innovatsion ko'rsatkichlarni yagona tizimga birlashtiruvchi

integrallashgan yondashuvlardan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi [11].

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorligini baholash va boshqarish bo'yicha mavjud ilmiy yondashuvlar tizimli tahlil qilindi. Korxonalarning iqtisodiy natijalariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, analitik ierarxiya jarayoni (AHP) hamda integral baholash usullaridan foydalanildi [12].

Tadqiqot obyekti sifatida qurilish materiallari sanoatida faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyati tanlandi. Baholash jarayonida ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, investitsion faollik, innovatsion rivojlanish va resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida qabul qilindi [13].

Iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash maqsadida alohida ko'rsatkichlarning o'zaro ta'siri va ahamiyat darajasini aniqlash uchun AHP usuli qo'llanildi. Mazkur usul ko'p mezonli qaror qabul qilish jarayonlarida keng qo'llanilib, iqtisodiy ko'rsatkichlarning ustuvorligini aniqlash imkonini beradi [14].

Baholash natijalari asosida iqtisodiy samaradorlikning integral ko'rsatkichi shakllantirildi. Integral indeks korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy, investitsion va innovatsion faoliyatini yagona tizimda baholash imkonini yaratadi. Mazkur yondashuv alohida ko'rsatkichlar asosida baholashda kuzatiladigan nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi [15].

1-jadval

Qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorligini baholashda foydalanilgan ko'rsatkichlar tizimi

Baholash yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkichlar
Ishlab chiqarish samaradorligi	Mehnat unumdorligi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, fond qaytimi
Moliyaviy samaradorlik	Sof foyda, rentabellik darajasi, aktivlar rentabelligi
Investitsion samaradorlik	Investitsiyalar hajmi, investitsiya rentabelligi, investitsiya qaytimi
Innovatsion samaradorlik	Innovatsion mahsulotlar ulushi, yangi texnologiyalarni joriy etish darajasi
Resurslardan foydalanish samaradorligi	Material sig'imi, energiya sig'imi, xomashyo sarfi samaradorligi
Boshqaruv samaradorligi	Rejalashtirish sifati, prognozlash aniqligi, boshqaruv qarorlarining natijadorligi

Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va tadqiqot natijalari asosida tuzildi.

Metodologiya bosqichida aniqlangan ko'rsatkichlar asosida integral baholash modeli shakllantirildi. Ushbu model korxona faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha emas, balki umumiy iqtisodiy natijalarini kompleks tarzda baholash imkonini berdi. Natijada iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish aniqligi oshib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati yaxshilandi [16]. Tadqiqotning keyingi bosqichida integral baholash modelining amaliy natijalari qurilish materiallari sanoati korxonalari

misolida sinovdan o'tkazildi va iqtisodiy samaradorlikka ta'siri baholandi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integrallashgan baholash yondashuvining amaliy samaradorligi qurilish materiallari sanoatida faoliyat yurituvchi "Kandeli" MCHJ misolida sinovdan o'tkazildi. Korxona faoliyatining ishlab chiqarish, moliyaviy, investitsion va innovatsion ko'rsatkichlari kompleks baholanib, joriy etilgan modelning iqtisodiy natijalarga ta'siri aniqlandi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Kandeli MCHJda iqtisodiy samaradorlikni baholashning integrallashgan yondashuvini joriy etish natijalari

Ko'rsatkich	Joriy etishdan oldin	Joriy etilgandan keyin	O'zgarish
Iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish aniqligi	100	112,3	+12,3 %
Baholashdagi xatoliklar	100	91,9	-8,1 %
Umumiy iqtisodiy samaradorlik indeksi	100	109,6	+9,6 %
Moliyaviy rejalashtirish samaradorligi	100	111,4	+11,4 %
Prognozlash aniqligi	85,0	92,0	+7,0 p.b.

Manba: muallif tadqiqotlari asosida "Kandeli" MCHJ ma'lumotlari bo'yicha tuzildi.

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, integrallashgan baholash tizimining joriy etilishi korxona faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha natijadorlikni oshirishga xizmat qilgan. Xususan, iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish aniqligining 12,3 foizga ortishi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanilayotgan axborotlarning ishonchliligini oshirgan. Shu bilan birga, baholashdagi xatoliklarning 8,1 foizga kamayishi korxona faoliyatini tahlil qilishda qo'llanilayotgan usullarning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Integral ko'rsatkich asosida olib borilgan baholash natijasida umumiy iqtisodiy samaradorlik darajasi 9,6 foizga yaxshilangan. Moliyaviy rejalashtirish samaradorligining 11,4 foizga oshishi esa

korxonaning rivojlanish strategiyasini shakllantirish va resurslarni taqsimlash jarayonlarida ijobiy natijalarga erishilganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, prognozlash aniqligining 85 foizdan 92 foizgacha oshishi kelgusidagi iqtisodiy natijalarni oldindan baholash imkoniyatlarini kengaytirgan.

Integrallashgan baholash tizimining amaliy samaradorligini yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida uning korxonaning moliyaviy natijalariga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati yaxshilanganligini hamda korxona moliyaviy natijalarida ijobiy siljishlar yuz berganligini ko'rsatdi. Mazkur natijalar 3-jadvalda aks ettirilgan.

3-jadval

Integrallashgan baholash tizimining korxona iqtisodiy natijalariga ta'siri

Ko'rsatkichlar	O'zgarish darajasi
Umumiy iqtisodiy samaradorlikning o'sishi	+9,6 %
Sof foydaning o'sishi	+7–9 %
Moliyaviy rejalashtirish samaradorligi	+11,4 %
Iqtisodiy tahlil aniqligi	+12,3 %
Baholashdagi xatoliklarning kamayishi	–8,1 %
Prognozlash aniqligi	85–92 %

Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

3-jadval ma'lumotlari integrallashgan baholash tizimidan foydalanish korxona faoliyatining turli yo'nalishlarida ijobiy natijalar shakllanishiga xizmat qilganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, iqtisodiy tahlil aniqligining oshishi va baholashdagi xatoliklarning qisqarishi korxona boshqaruvi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki boshqaruv qarorlarining samaradorligi, avvalo, foydalanilayotgan iqtisodiy axborotlarning aniqligi va ishonchliligiga bog'liq bo'ladi [3; 4].

Tadqiqot davomida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham tahlil

qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy samaradorlik darajasiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish darajasi bilan bog'liqdir [5; 10].

Korxonalarda investitsiya va innovatsiya ko'rsatkichlarining yaxshilanishi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, bu esa o'z navbatida mahsulot tannarxining pasayishiga va rentabellik darajasining ortishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy samaradorlikni baholashda alohida

moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolish korxonaning haqiqiy imkoniyatlarini to'liq aniqlashga imkon bermaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarning nisbiy ahamiyati ham umumlashtirildi.

4-jadval

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarning ustuvorlik darajasi

Omillar guruhi	Ta'sir darajasi
Ishlab chiqarish samaradorligi	Yuqori
Moliyaviy barqarorlik	Yuqori
Investitsion faollik	O'rta-yuqori
Innovatsion rivojlanish	O'rta-yuqori
Resurslardan foydalanish samaradorligi	Yuqori
Tashkiliy-boshqaruv omillari	O'rta

Manba: AHP usuli asosidagi ekspert baholash natijalari bo'yicha muallif tomonidan tuzildi.

4-jadvaldan ko'rinadiki, iqtisodiy samaradorlikka eng katta ta'sir ishlab chiqarish va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq omillar hissasiga to'g'ri keladi. Qurilish materiallari sanoatining energiya va xomashyo sig'imi yuqori bo'lganligi sababli ushbu omillar korxonalar faoliyatining yakuniy natijalarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, investitsion va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari ham korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda [11; 14].

Mazkur natijalar iqtisodiy samaradorlikni baholashda integrallashgan yondashuvdan foydalanish korxona faoliyatini yanada obyektiv baholash, mavjud ichki rezervlarni aniqlash va strategik boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish imkonini berishini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholashda alohida moliyaviy yoki ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridan foydalanish korxona faoliyatining haqiqiy holatini to'liq aks ettirmasligi aniqlandi. Korxonalar faoliyati ishlab chiqarish, moliyaviy, investitsion va

innovatsion omillarning o'zaro bog'liq tizimi sifatida shakllanishi sababli iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash zarurati mavjudligi asoslandi.

Tadqiqot davomida iqtisodiy samaradorlikni baholashning integrallashgan yondashuvi ishlab chiqilib, uning amaliy samaradorligi qurilish materiallari sanoati korxonasi misolida sinovdan o'tkazildi. Natijalar iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish aniqligi 12,3 foizga oshganligini, baholashdagi xatoliklar esa 8,1 foizga kamayganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga umumiy iqtisodiy samaradorlik darajasining 9,6 foizga yaxshilangani hamda moliyaviy rejalashtirish samaradorligining 11,4 foizga ortgani aniqlandi.

Tahlillar natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish bilan bog'liqligi aniqlandi. Ayniqsa, energiya va moddiy resurslar sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarda resurslardan oqilona foydalanish korxona rentabelligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholashda alohida moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, ishlab chiqarish, investitsion, innovatsion va resurs samaradorligi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi integral baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, korxonalarda strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida integral samaradorlik indeksidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu korxonaning zaif va kuchli tomonlarini aniqlash hamda mavjud ichki rezervlardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Uchinchidan, investitsion resurslarni taqsimlashda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir

etuvchi omillar ustuvorligini hisobga oluvchi baholash mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, korxonalarda iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlash jarayonlariga zamonaviy iqtisodiy-matematik modellarni keng joriy etish tavsiya etiladi. Bu bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga tezkor moslashish va strategik qarorlar sifatini oshirish imkonini beradi.

Beshinchidan, qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy samaradorlik monitoringini yo'lga qo'yish hamda korxonalar faoliyatini baholashning yagona mezonlar tizimini shakllantirish tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. O'zbekiston–2030 strategiyasi.
3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. -Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. -592 b.
4. Pardayev M.Q., Abdukarimov B.A. Korxona iqtisodiyoti. -Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. -488 b.
5. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. -Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. -728 b.
6. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. 19th Edition. -New York: McGraw-Hill, 2010. -744 p.
7. Denikin A.V., Denikina Z.D., Kubikova N.V. Social efficiency and human capital development in industrial enterprises // Economics and Management. -2021. -№4. -P. 15–27.
8. Udalov D.V. Human capital investments and enterprise performance efficiency // Economic Sciences. -2022. -№7. -P. 44–56.
9. Savitskaya G.V. Analysis of Economic Activity of Enterprise. -Moscow: Infra-M, 2021. -378 p.
10. Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh., Starodubtseva E.B. Modern Economic Dictionary. -Moscow: Infra-M, 2020. -512 p.
11. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. -Toshkent: Sharq, 2019. -480 b.



12. Saaty T.L. Decision Making with the Analytic Hierarchy Process. -Pittsburgh: RWS Publications, 2008. -287 p.
13. G'ulomov S.S. Innovatsion iqtisodiyot. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. -364 b.
14. Xodiyev B.Yu., Berkinov B.B., Mustafakulov Sh.I. Investitsiyalarni boshqarish. -Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. -420 b.
15. Zaynutdinov Sh.N. Korporativ boshqaruv asoslari. -Toshkent: Moliya, 2020. -312 b.